



BARKAMOL AVLOD TARBIYASIGA YANGICHA YONDASHUV - DAVR TALABI

Dilbar Kodirova Sirojiddinovna¹

¹ Pastdarg'om tumani XTBga qashali 94-umumiy o'rta ta'lim maktabi
ijodiy va madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.5885145>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 08-Yanvar 2022
Ma'qullandi: 13- Yanvar 2022
Chop etildi: 18- Yanvar 2022

KALIT SO'ZLAR

Vatan ravnaqi, xalq farovonligi, ijtimoiy hamkorlik, komil insonni tarbiyalash, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik

Bugungi kunda dunyo miqyosida g'oyaviy tahdid va axborot xurujlari kuchayib, odamlar ongi va qalbini egallash borasidagi kurash tobora murakkab tus olmoqda. Ayniqsa, turli xil terroristik oqimlar, missionerlar va boshqa jangovar to'dalar o'zlarining yovuz maqsadlarini aynan axborot yordamida amalga oshirayotgani, bunda ular asosan, yosh avlod ongidagi g'oyaviy bo'shliqni, dastlab yolg'on rag'bat, keyinchalik yesa yovuzlik va tubanlik bilan zaharlash orqali egallash uchun kurashmoqda. Bunday keskin vaziyatda xalqni, jamiyatning taraqqiyoti va tinchlik-farovonligini, avvalo, ezgulik,

ANNOTATSIYA

Bugungi kunda dunyo miqyosida g'oyaviy tahdid va axborot xurujlari kuchayib, odamlar ongi va qalbini egallash borasidagi kurash tobora murakkab tus olmoqda. Ayniqsa, turli xil terroristik oqimlar, missionerlar va boshqa jangovar to'dalar o'zlarining yovuz maqsadlarini aynan axborot yordamida amalga oshirayotgani, bunda ular asosan, yosh avlod ongidagi g'oyaviy bo'shliqni, dastlab yolg'on rag'bat, keyinchalik yesa yovuzlik va tubanlik bilan zaharlash orqali egallash uchun kurashmoqda. Bunday keskin vaziyatda xalqni, jamiyatning taraqqiyoti va tinchlik-farovonligini, avvalo, ezgulik, ma'naviyat va ma'rifat bilan sug'orilgan mafkuragina qutqara oladi.

ma'naviyat va ma'rifat bilan sug'orilgan mafkuragina qutqara oladi.

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "...Hammamizga ayonki, bugungi murakkab globallashuv davrida jamiyatimizda milliy g'oya va mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, yoshlarimizni turli zararli g'oya va tahdidlardan asrash, ularni o'z mustaqil fikriga ega, irodali, fidoyi va vatanparvar insonlar etib tarbiyalash har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda"[1;].

Bunda bizdan yanada ogoh, hushyor bo'lib, yoshlarimizni turli mafkuraviy xurujlardan himoyalash,



yurtdoshlarimizning hayotga ongli munosabatini shakllantirish, ularda yon-atrofimizda sodir bo'layotgan voqeahodisalarga nisbatan daxldorlik hissini oshirish talab etiladi. Shuningdek, mamlakatimiz mustaqilligi, tinch-osoyshta hayotimizga rahna solishi mumkin bo'lgan tajovuzlarga qarshi izchil kurashda ma'naviy immunitetni kuchaytirish ham eng muhim vazifamizdir. Shunga muvofiq ravishda biz oilada, mahallada, ta'lim dargohlarida milliy mustaqillikni yanada mustahkamlash, milliy o'zlikni anglash, jamiyatni, yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi, ijtimoiy hamkorlik, komil insonni tarbiyalash, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglikni o'z ichiga olgan milliy mafkuramizni aholi, ayniqsa, yoshlar o'rtasida keng targ'ib qilishimiz lozim.

Har bir farzand ertangi kunimizning davomchilari. Ularning kelajagi esa biz, kattalarga bog'liq. Shunday ekan, ularga Yangi O'zbekiston tanlagan eng to'g'ri va eng adolatli yo'ldan adashmaslikni qancha erta o'rgatsak, shuncha yaxshi natijaga erishamiz. Chunki oilada shakllangan ma'naviy muhit bir umr insonning yashash tarziga ta'sir ko'rsatadi. Mafkuraviy poligonlar esa e'tiborini aynan o'sha jihatga qaratgan. Bunda ularga cheksiz axborot oqimi – internet juda qo'l kelmoqda.

Ikki shaxsni olib qaraylik, ulardan biri sog'lom ma'naviy muhit shakllangan oilada, ikkinchisi esa er-xotin o'rtasida doimiy nizolar, urush-janjallar bo'lib turadigan xonadonda tarbiyalangan. O'z-o'zidan birinchi oilaning farzandi oila a'zolari davrasida bo'lishdan, ota-onasining maslahatlariga amal qilishdan zavqlanadi. Ikkinchisi esa oiladagi muhitni tahlil qilib, o'zini keraksiz "matoh"dek his etadi. Shubhasiz, bunday bolalar mehrni, e'tiborni

begonalardan izlab, ko'chaga intiladi. Bo'sh vaqtini bilim olishga emas, turli ijtimoiy saytlardagi "do'stlari" bilan o'tkazishga sarflaydi. Ijtimoiy tarmoq orqali unga "mehribonlik" qilayotganlarga osongina ergashadi. Oqibatda, yovuz kimsalarning jonli quroliga, manqurtga aylanib, nima vazifa yuklatilsa, o'shani bajarish yo'lida jonini ham ayamaydi. Negaki, uning ongida hosil bo'lgan real olamda keraksizlik hissi virtual olamda "keraklilik" hissi bilan almashdi. Afsuski, oiladagi nosog'lom muhitga barham bermas ekanmiz, jamiyatdagi muhit ham shu tariqa nosog'lom tus olaveradi.

Biz hamisha inson to'g'risida, barkamol avlod tarbiyasi haqida o'ylar ekanmiz, avvalambor sog'lom oilaviy muhit, mustahkam oilani shakllantirishga butun imkoniyatlarimizni safarbar etayotganimiz bejiz emas. Vaholanki, insonning qay yo'sinda tarbiya olganligi, insoniy fazilatlar, burch va mas'uliyat uning ongiga qay darajada singdirilganligi oxir-oqibatda biz qanday insonni shakllantirishimizga kelib taqaladi.

Ayni shu ma'noda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni [2;] qabul qilinganligi bu borada katta ahamiyatga ega. Mazkur Farmon asosida 2021-yil 1-yanvardan boshlab, har bir umumta'lim muassasasida Ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchi lavozimi joriy etilgan edi. Men maktabda ushbu lavozimda faoliyat olib bormoqdaman. Asosiy faolitim sifatida, o'quvchilarni kitobxonlikka, kitobsevarlikka da'vat etish, o'zbek va jahon adabiyotining eng sara durdonalarini



targ'ib qilish, o'quvchi-yoshlar orasida umuminsoniy va milliy qadriyatlarni tar'gib qilish, yosh avlodni ma'nan barkamol etib tarbiyalashda ozmi-ko'pmi o'z hissasimni qo'shib kelmoqdaman. Buning uchun oyda bir marotaba bo'lsa ham taniqli yozuvchi va shoirlarni to'garaklarga taklif etib, umumta'lim maktablarida adabiy-badiiy kechalarni tashkil etish ish rejamga kiritganman.

Haqiqatdan ham bugungi kunda ma'naviyat, ilm-fan va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarda yuksak marralarga erishimizning asosi sifatida yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev so'zlari bilan aytganda "... aziz do'stlar, birodarlar, agar intilsak, astoydil harakat qilsak, har qanday baland marrani egallash qo'limizdan keladi. Biz ma'rifat borasida, ta'bir joiz bo'lsa, "iligi to'q" xalqmiz. Ilm-fanga intilish bizning qonimizda, bugungi til bilan aytganda, genimizda bor" [3;].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi // <https://president.uz/oz/lists/view/3864>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/-5085999>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi // <https://president.uz/oz/lists/view/3864>
4. Haqqulov N.Q. Perfect generation - personality of private education and humanity facilities // "МИРОВАЯ НАУКА" международное электронное научно-практическое периодическое издание. -2019. - №2(23). - С.62-63
5. Сафаров А.И., Хаккулов Н.К. Свойственные качества совершенному человеку в суфизме // Современная наука как социально-политический факторразвития государства: материалы международной научно практической конференции (10 мая 2019г., Москва) Отв. ред. Зарайский А.А.- Издательство ЦПМ «Академия Бизнеса», Саратов 2019. С. 48-50.